



NAVOIY LIRIKASIDA TABIAT TASVIRI

Yuldasheva Munisabonu Ilhomjon qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti magistranti
munisaxonbahromova@gmail.com

Abstrakt Alisher Navoiy ijodiy merosida asosiy o‘rinni belgilovchi g‘azal janriga mansub nodir durdonalar o‘ziga xos badiiyati bilan ahamiyatlidir. Navoiy lirikasida kelgan tabiatga oshiqlik, oshnolik, hayrat kabilar esa uning peyzaj lirikasini yaratgan. Shoirning umumijodi kuzatilsa, lirik qahramon tabiat bilan ruhiy yaqinlikda, tabiat bilan tirik. Maqolada Navoiy g‘azallarida peyzaj san’ati ko‘rib o‘tildi. Uning bu boradagi mahorati “Bahor elga ayshu manga iztirob”, “Ey, latofat kasbida husningg‘a hojatmand gul” deb boshlanuvchi g‘azallari orqali tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: g‘azal, lirika, peyzaj, tabiat, mumtoz adabiyot, ruhiy kechinma, lirik qahramon, tasvir vositalari.

Abstract Rare masterpieces belonging to the genre of ghazals, which mark the main place in Alisher Navoi's creative heritage, are significant for their unique artistry. Love, familiarity, and admiration for nature in Navoi's lyrics created his landscape lyrics. If the whole creation of the poet is observed, the lyrical hero is in spiritual closeness with nature, alive with nature. Landscape art in Navoi's ghazals was considered in the article. His skill in this regard was explored through his ghazals, which begin with "Bahor elga ayshu manga iztirob" and "O, flower in need of kindness."

Key words: ghazal, lyric, landscape, nature, classical literature, spiritual experience, lyrical hero, image tools.

Абстрактный Редкие шедевры жанра газелей, занимающие главное место в творческом наследии Алишера Навои, значимы своим неповторимым художественным исполнением. Любовь, знакомство и восхищение природой в лирике Навои создали его пейзажную лирику. Если рассмотреть все творчество поэта, лирический герой находится в духовной близости с природой, живой природой. В статье рассмотрено ландшафтное искусство в газелях Навои. Его мастерство в этом отношении было раскрыто в его газелях, которые начинаются со слов «Бахор эльга айшу манга изтироб» и «О, цветок, нуждающийся в доброте».

Ключевые слова: газель, лирика, пейзаж, природа, классическая литература, духовный опыт, лирический герой, средства изображения.

O‘zbek mumtoz she‘riyatining buyuk vakillari – Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabilarning peyzaj lirikalari adabiy merosining shoh satrlari sifatida qadrlidir. Ular tabiat manzaralariga bag‘ishlangan asarlarida tabiat hodisalari va lirik qahramon xis-tuyg‘ularini uyg‘unlashtirib beradilar. Ya‘niki, “Peyzaj shunchaki manzara emas, u ijodkorlarning muayyan narsa-hodisa, inson, tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi tasviriy vositalardan biriga aylandi.”[Matyoqubova, 2011:67]

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy lirik merosi mavzu doirasining kengligi, g‘oyaviy yuksakligi, go‘zal badiiyati bilan asrlar osha insoniyat hayratiga sabab bo‘lib kelmoqda. Shoirning peyzaj yaratish mahorati ham o‘ziga xos bo‘lib, bu an‘anani san‘atkorona davom ettirgan deyish mumkin. Navoiy ijodida tabiat fasllari tasviriga keng o‘rin beriladi. Ayniqsa shoir bahor faslining go‘zalliklariga alohida e‘tibor qaratadi. Shunga monand gul, bulbul, qumri, oy, shamol, shabada kabilarni badiiy talqin etadi. Bunda ko‘proq tabiatning turfa xil manzaralari lirik qahramon qalb kechinmalari bilan bog‘liqlikda yoritiladi.

“Tabiat bilan til topish, shunda hech vaqt kambag‘allashmaysan. Seni odamlarning fikr-mulohazalari emas, tabiat badavlat qiladi”, deydi yunon faylasuflaridan biri.

Inson va tabiat o‘rtasida azaliy va abadiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ularni bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson bir umr tabiatdan moddiy, ma‘naviy-ruhiy ozuqa olib yashaydi. Shuning uchun inson qalbini ochishda tabiat birlamchi vositadir. [Nabiyev,1993: 97] Adabiyotshunoslikda lirik qahramon ruhiy olami va tabiat hodisalari o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi ko‘plab tadqiqotlarga sabab bo‘lgan. Navoiyning peyzaj lirikasida ham lirik qahramon ruhiy kechinmalari, kayfiyati, holati yorqin aks ettiriladi. Aksar she‘rlarida tabiatning go‘zalligi va maftunkorligiga zid ravishda lirik qahramon qalbida mahzunlik, g‘amginlik va tushkunlik kayfiyati o‘z aksini topgan. Bu jihatdan uning “Bahor elga ayshu manga iztirob” deb boshlanuvchi g‘azali xarakterlidir:

Bahor elga ayshu manga iztirob,
Kulub holima barqu yig‘lab sahob.

Navoiy bahor faslida tabiatda bo‘ladigan go‘zalliklarni lirik qahramon hayotida birma-bir yuz berayotgan ko‘ngilsizliklarga qarama-qarshi qo‘yadi. She‘rda o‘quvchi bir tomonda bahorning inson qalbini junbushga keltiradigan go‘zal tabiatiga oshno bo‘lsa, ikkinchi tomonda lirik qahramonning shikasta qalbi ozorlarini kuzatadi.

G‘azal matla‘danoq bahor elga rohat, lirik qahramonga iztirob olib kelganligi haqidagi xabar bilan boshlanadi. O‘quvchini esa keyingi misralardagi maxzun kayfiyatga tayyorlaydi. Bahor havosining manzarasi shoirning o‘ziga xos mahorati ila chizib beriladi. Ya‘ni lirik qahramon ahvoliga chaqmoqni kulishi, bulutni esa yig‘lashi osmon xodisotlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Baytning yana bir botiniy ma‘nosi borki, inson boshiga tashvish tushganda yaxshilarning (bulut) unga hamdard ekanligi, yomonlarning(chaqmoq) uning ustidan kulishi shoir mahorati ila ko‘rsatiladi. Misradan misraga o‘tgan sayin bunday qiyoslar o‘quvchi hayratini oshirib boradi. Yorni gulga o‘xshatib, oshiqni shu gul g‘amida bag‘rini yerga berib yotishini va suvdek to‘lg‘onishini tabiat manzarasidagi quyidagi holat bilan ifodalaydi. Ya‘ni,

Solib tufrog‘ ustida bir gul g‘ami,
Orig‘liq sudek jismima pechu tob.
G‘azalning keyingi bayti esa:
Ketib g‘unchadek dog‘i nargis kibi,
Og‘iz birla ko‘zdin manga xo‘rdu xob.

Baytda tashbeh san‘atining go‘zal namunasini ko‘rish mumkin. Ya‘niki, ishq dardida borini unutgan oshiq ko‘zidan uyqu, tanidan halovat ketadi. Bora-bora yeb-ichishni, uxlashnida unutadi. Navoiy nazdida oshiqning bu ahvoli g‘unchadek og‘zi berklik, nargiz gulidek doim ko‘zi ochiqlikka o‘xshatiladi va o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi.

Esib xalq sori nasimi visol,
Menga hajr o‘tidin yetib iltihob.

Endi shoir bahor faslida esadigan mayin va yoqimli shabadani, issig‘i insonga jarohat beradigan o‘t(olov) bilan zid qo‘yadi. Bahorda esadigan mayin shabada xalq tomon esgani holda, lirik qahramon hijron o‘ti azobidan yaralanadi. Keyingi bayt g‘azalda ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Guli vasl agar dahr bog‘ida yo‘q,
Yetar qatlima hajr xori azob.

Ya‘ni, dunyo bog‘ida vasl guli yo‘q ekan, hajr tikoni azoblab o‘limga olib boradi deydi. G‘azalning shu yerigacha shoir tevarak-atrofdagi manzaralarni jonlantirib, o‘quvchida bahor paytidagi tabiat haqida muayyan tasavvur uyg‘otgan edi. Shundan keyin shoir dunyoning eskiligi, shu dunyoning jabri, zulmi bilan yoshlik o‘tib ketganiga afsuslanishga o‘tadi.

Ko‘han dayr bedodu zulmi bila,
Darig‘oki, o‘tdi zamoni shabob.

Ayni tasvirda dunyo tashvishlarining o‘ta bema‘ni ekanligini anglash, o‘zini Haq yo‘liga bag‘ishlash uchun tayyor insonning ichki dunyosidagi alam va og‘riq aksini ko‘rish mumkin. Keyingi misralardan g‘azalning tasavvufiy mavzuda ekanligi oshkor bo‘ladi.

Chu yo‘q vasl, bexudlug‘ avlodurur,
Qadah davrig‘a ayla soqiy shitob.
Ki o‘zni qilay necha sog‘ar chekib,
Bu dayri xarob ichra masti xarob

Chunki birin-ketin qadah, soqiy, may, mayxona, xaroblik, mastlik, zamon ahlidan o‘zni saqlash kabi tushunchalar an‘naviy ramziy usul bilan berila boradi. Ma‘lumki, tasavvuf falsafasida qadah – may quyiladigan idish, ya‘ni Haqqa intilayotgan inson qalbining timsoli. Soqiy esa tasavvufda – piri murshid timsoli bo‘lib, devonalikning davosi soqiy quygan may bilan ketishi, lekin qancha may ichsada bu xarob mayxona ichida ahvoli nochor bo‘lib qolayotganidan yozg‘iradi.

Baytlarda husni ta‘lil, laffu nashrning murakkab turi g‘azalning badiiyligini ta‘min etadi. Yana tanosib san‘ati ham ustuvorlik qilib, may, qadah, soqiy, mayxona hamda mast bo‘lish tushunchalari bir-birini taqozo etib kelmoqda.

Navoiy, desangkim zamone tinay,

Zamon ahlidin aylagil ijtinob.

G‘azal maqtasida Navoiy o‘ziga murojaat qilib, nomukammal zamondan tinchish, bu zamon ahlidan o‘zini saqlash ekanligini aytadi. Bu bayt ham tasavvufiy mazmunda bo‘lib, baytning botiniy, ichki ma‘nosi; dunyo tashvishlaridan, g‘am-qayg‘udan horigan, o‘zini anglashni istayotgan inson ko‘ngli uzlatni xohlaydi va zamon ahlidan o‘zni saqlashni haq yo‘l deb biladi. G‘azal ichki syujetga ega bo‘lib, insonning tabiat orqali ichki dardlari bayoni (1-5-baytlar), yigitlik ya‘ni yoshlikning o‘tib ketishidan afsuslanish (6-bayt), o‘zni anglash yo‘lidagi iztiroblar (7-8-baytlar), o‘zini haq deb bilgan yo‘lini topish(9-bayt) kabilarni ko‘ramiz.

Shoir avvalgi baytlarda tashxis san‘ati vositasida tabiat hodisalarini jonlantirib, lirik qahramon his-tuyg‘usi o‘rtasidagi mushtaraklikni mahorat bilan tasvirlaydi. Navoiyning ko‘plab she‘rlarida tabiat manzaralari badiiy obraz sifatida keltirilib, peyzaj badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. Tabiat bilan bog‘liq badiiy obrazlar ijodkorning hayotga, insonga, tabiatga, ilohiyotga bo‘lgan munosabatini ifodalashga yordam beradi. Navoiy ijodida tabiat bilan bog‘liq obrazlar ko‘plab uchraydi va shoirning g‘oyaviy-badiiy niyatini, lirik qahramon kechinmalarini ochib berishga yordam beradi. Shoir sarv, sumbul, gul, g‘uncha, oy, hilol, shamol, suv, shu‘la, shudring, shabnam, barg kabi obrazlardan unumli va o‘rinli foydalanib peyzaj san‘atining nodir namunalarini yaratadi. Bunga misol tariqasida peyzaj ob‘yekti bo‘lgan so‘z radifga olingan “Ey, latofat kasbida husningg‘a hojatmand gul” deb boshlanuvchi g‘azalini keltirish mumkin.

Ey, latofat kasbida husningg‘a hojatmand gul,

Yuz guliston ichra yo‘q yuzungga bir monand gul.

G‘azalning o‘ziga xosligi ma‘shuqaning badiiy tavsifi uni tabiatning eng go‘zal xilqatlaridan bo‘lgan latofat timsoli gul bilan qiyoslash vositasida yuzaga chiqqan. G‘azal matla’si “gul”ga murojaat bilan boshlanib, she‘r boshdan-oxirgacha badiiy san‘atlar bilan bezangan. Matla‘da shoir ma‘shuqa husnining beqiyosligini tasvir etadi. Latiflikda uning husniga gul ham muhtojligi aytilib, yuz guliston ichida yorning yuzidek bir gul yo‘qligi ta’kidlanadi. Baytda nido (ey), husni ta’lil (latofat kasbida husnga gulni hojatmand bo‘lishi), tashxis(gulni hojatmand ya‘ni muhtoj bo‘lishi), mubolag‘a(yuz gulistondayam unga o‘xshashi yo‘qligi), tazod(yuz va bir so‘zlari) kabilar she‘r ta’sirchanligini oshirgan. Shoir inson suvrati bilan o‘simlik dunyosi o‘rtasidagi o‘xshashlikni badiiy aks ettiradi. Manzara jonlilik kasb etadi.

Keyingi misrada yorning go‘zal qomati sarv va gulning payvand bo‘lishiga qiyos qilinadi va husni ta’lil san‘atining go‘zal namunasi bo‘y ko‘rsatadi.

Xil’ati xazro bila ul qomatu ruxsor erur

Rost bir sarveki, qilg‘aylar anga payvand gul.

Ya’niki, yashil kiyimli qomat bilan chiroyli yuz, bir tik sarvga gulni payvand qilgandek deydi oshiq ma‘shuqa go‘zalligidan zavqlanib. Baytda shuningdek, tanosib va tashbeh san‘atlari vositasida lirik qahramon ruhiy olami, ma‘shuqa tashqi qiyofasi tasvirlanadi. Shoir gul bor joyda tikan bo‘lishini esdan chiqarmaydi. Keyingi baytda:

Yuzu g‘amzangdin mujamdin qon yosh ar zoyandadur,
Yo‘q ajab, chun bor tikanga doimo farzand gul.

deya, ma‘shuqaning chiroyli yuzi va qarashidan kipriklaridan qonli yosh oqishi ajablanarli emasligi, chunki gul tikanning farzandi ekanligi eslatiladi. Baytda g‘amza, kiprik(muja), yosh so‘zlari o‘zaro tanosib san‘atini, tikan va gul tazod san‘atini hosil qiladi. Baytlarda shoir yor tasvirini berishda gul obrazidan mohirona foydalansa, maqta‘da yorning beparvoligi gulning pand eshitmasligiga o‘xshatiladi va jonli tasvir o‘quvchi ko‘z oldida gavdalanadi.

Ey Navoiy, gar so‘zungni yor eshitmas, ayb emas,
Turg‘oni birla quloqdur, lek eshitmas pand gul.

Umuman, Navoiy lirik she‘riyatida gul obrazi turli xil maqsadlarda qo‘llanilgan. Shoir bu obraz vositasida ba‘zan ma‘shuqani aks ettirsa, ayrim o‘rinlarda ma‘shuqa tashqi qiyofasini ta‘riflaydi. Ayrim hollarda esa gul bilan yorning go‘zalligi qiyosga tortiladi.

Shoirning “Zavroq ichra ul quyosh...”, “Vahki, chamandin yana...”, “Kirdi tufroqqa hilol...”, “Orazini bog‘ aro chun ko‘rdi, hayron bo‘ldi gul” kabi g‘azallari ham peyzaj lirikasi uchun go‘zal namunalar bo‘la oladi. Alisher Navoiyning adabiy merosi tarkibida “Nazm ul-javohir” asari ham alohida ahamiyatga ega. Bu gavharlar tizmasini Navoiy hazrati Amir Alining “Nasr ul-la‘oliy” (“Sochma durlar”) deb atalgan hikmatlar to‘plami asosida tuzgan. Bu to‘plamdagi hikmatlar arab tilida nasr bilan aytilgan bo‘lib, Navoiy ularni o‘zbek (turkiy) tilida she‘r bilan bayon qildi. Bu she‘rlarning har biri bir to‘rtlikdir, ya‘ni to‘rt misradan iborat. Shu se‘riy tizmalarni o‘rganish jarayonida shoirning peyzajdan o‘rinli foydalangani diqqatimizni tortdi. Bu esa Navoiyning lirik janrdagi asarlarida peyzaj yaratish mahoratiga yaqqol misol bo‘la oladi deyish mumkin.

Navoiy asardagi: *Hayo ul-mar‘i satruhu* – “Hayo uning pardasidir”. (Kitobda “Kishining hayosi uning pardasidir”) degan fikrni she‘riy yo‘sinda sharh etar ekan, hayoni ko‘klarga ko‘taradi. U bor shoirlik kuchi bilan hayoni ulug‘laydi. Ana shunday yuksak ta‘riflardan keyingina hayoning hijob, niqob sifatidagi o‘rnini ta‘kidlab o‘tadi. Bunda shoirga tabiat unsurlari qo‘l keladi.

Navoiyning yozishicha, hayo – oftob. U sharaf osmonining eng yuksak (avj) darajasida turib nur sochadi. Hayo – bulut. Uning yomg‘iri tufayli baxt-saodat bo‘stoni kamol topadi.

Avji sharaf uzra **oftob** o‘ldi hayo,

Bo‘stoni saodatga **saxob** o‘ldi hayo.

Mazmum xasoilg‘a hijob o‘ldi hayo,

El aynig‘a go‘yoki niqob o‘ldi hayo. [Qayumov, 2024:, 119-120]

Xullas, Navoiy ijodi peyzaj uchun boy manba deyish mumkin. Shoirning bir guruh she‘rlarida lirik qahramon tabiat go‘zalliklaridan bahra olib, o‘zida yashashga intilish sezgan inson qiyofasida gavdalansa, aksar she‘rlarda tabiatning go‘zalligi va maftunkorligiga zid ravishda lirik qahramon qalbida mahzunlik, g‘amginlik va tushkunlik kayfiyati aks etadi.

Ayrimlarida tabiat mo‘jizalari orqali Ollohning buyukligi ko‘rsatiladi va bunday g‘azallar tasavvufona g‘oyalar bilan uyg‘unlashib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash‘orlar. – T.: Sharq, 2014, - B.119-120.
2. Матёкубова Т. Поэтик идрок ва маҳорат. – Т.: “Фан ва технология”, 2011.- Б.78.
3. Набиев Ф. Табиат тасвири ва шоир маҳорати // Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. – Т.: “Фан”, 1993. Б. 97.
4. Салаев Ф., Қурбониёзов Г. А дабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2010. 332 б.